
RISHTONDA «XONADONBAY» TARZDA FUQAROLARNING MUAMMOLARI O'RGANILMOQDA

□ Bugun tuman hokimi "Nosgar" mahallasida yashovchi fuqarolarning hayotiy muammo va murojaatlarini hal etish maqsadida aholi bilan to'g'ridan-to'g'ri ochiq muloqotlar o'tkazdi va xonadonbay yurib ularning muammolarini tingladi.

□ Ushbu uyma-uy yurib o'rganilganda aholi tomonidan asosan mahalladagi ichimlik suvi, ichki yo'llarni ta'mirlash, ko'chalarni chiroqlar bilan yoritish, kanalizatsiya, bolalar sportini rivojlantirishda amaliy yordam berish kabi masalalarida murojaatlar kelib tushmoqda.

□ Bu kabi uchrashuvlardan mahallaning har bir ko'chalarida yashovchi fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarning har birini ijrosi ta'minlanishi bo'yicha sektor rahbariyati tomonidan shaxsan joylarga chiqqan holda o'rganish ishlari amalga oshirilmoqda.

2023-02-09 16:56:19